



AGRAR SEKTORNI RIVOJLANTIRISHDA RESURLAR SALOHIYATIDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

¹Fayziyev Oybek Raximovich

Toshkent davlat agrar universiteti,

“Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit” kafedrası dotsenti, i.f.f.d (PhD),

²Saidov Muxammad-Ali Hakimovich

Toshkent davlat agrar universiteti, “Agroiqtisodiyot va turizm”
kafedrası professori, i.f.d.,

³Abduraxmonova Nilufar Inomjon qizi

Toshkent davlat agrar universiteti magistranti

fayziev.oybek@mail.ru.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7483895>

ARTICLE INFO

Received: 14th December 2022

Accepted: 25th December 2022

Online: 26th December 2022

KEY WORDS

Agrosiyosat, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, tabiiy resurslar, yer va suv resurslari, moddiy va texnikaviy resurslar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada agrar sektorni rivojlantirishda resurslar salohiyatidan foydalanishning hozirgi holati tahlil qilingan bo'lib sohada so'ngi yillarda amalga oshirilgan islohotlar va asosiy ko'rsatkichlar statistic va nazariy umumlashtirish metodlari orqali o'rganib chiqilgan.

KIRISH. O'zbekiston iqtisodiyotining barcha tarmoqlari, jumladan agrar sohada ham yangilanish, rivojlanishning yangi yo'nalishlari kengaymoqda. Yangi o'zgarishlar qishloq aholisi bandligi va daromadlarini oshishiga olib kelmoqda. Shu bilan bir vaqtda mamlakatimizda qabul qilingan agrar soha tarmoqlarini, shuningdek, qishloq xo'jaligini uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasi¹, mamlakatimizda yer – suv, mehnat, texnika va boshqa resurslardan samarali foydalanish, agrosanoat tarmoqlariga investitsiyalar jalb etishini kuchaytirishni talab etmoqda. Ayniqsa butun agrar sektor amaliyotiga yangi kirib kelayotgan agroklastarlarni rivojlantirish va kooperativ munosabatlarni qo'llab –

qo'vvatlash, axborot – kommunikatsiya texnologiyalari hamda bozor mexanizmlarini ilmiy – nazariy tushuncha va tamoyillarini hayotga keng joriy etishi zarur. Bu esa agrar sektor va uning uzviy qismlari o'rtasida o'zaro munosiblikni ta'minlashdek murakkab tadqiqot ishlarini bajarishni ta'qozo etadi. Shu bilan bir vaqtda rivojlangan xorijiy davlatlarda ilg'or fan va texnologiyalarning mamlakatimizga kirib kelishi agrar sektor tarmoqlari va majmualarini boshqarishga yangicha yondashuv va usullarni ishlab chiqishni talab etmoqda. Shu bilan bir qatorda sohada qo'llanilayotgan tushuncha va atamalar o'rtasida o'zaro nomuvofiqliklar kuzatilmoqda².

¹ 1. Стратегия развития сельского хозяйства на 2020 – 2030 годы. Приложение № 1 к Указы Президента Республики Узбекистан от 23.10.2019 года № УП – 5853.

² Farmanov, J.Z., Rimboyeva, N., Qaxramonov, F. MAMLAKATIMIZDA AGRAR SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI // ORIENSS. 2022. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mamlakatimizda->



Shularni inobatga olgan holda mamlakatimiz agrar sektori va u bilan bog'liq sohalar o'rtasidagi tushunchalarning ilmiy – amaliy jihatdan tahlil qilish va taqqoslash hozirgi davrda o'ta dolzarb muammolar qatoriga kiradi. Shuni hisobga olib ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – xorijiy tajribalar asosida agrar sektorning hozirgi shakllangan tarkibiy tuzilishi va uning asosiy tushunchalari mazmun – mohiyatining o'zaro muvofiqligini ilmiy – amaliy jihatdan tadqiq etish hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Respublikaning yer-suv fondi va qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer-suv resurslari, ularning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati, miqdori, turlari, tarkibi va sug'oriladigan yerlar miqdori va sifatini tahlil qilish, yer-suv munosabatlarining huquqiy asoslarini, yer-suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishga oid hukumat choratadbirlarining ahamiyatini, yer kadastrining mazmun-mohiyatini, yersuvdan foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizim ini o'rganish, irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirishda davlatning roli hamda suv resurslaridan oqilona foydalanishda yangi sug'orish usullarini, texnikalam ijoriy etishni o'rgatish biz yuqorida ko'ndalang qo'ygan masalaning asl mohiyati va maqsadi hisoblanadi.³

Qishloq xo'jaligi umuman olganda agrar sektor iqtisodiyotining asoslaridan biri bu tabiiy resurslardir. Tabiiy resurslarning eng

agrar-siyosatni-amalga-oshirishning-asosiy-yo-nalishlari (дата обращения: 26.12.2022).

³ Utkirovna MN, Shoxo'jaeva Zebo Safoevna Organizational and economic basis for the development of cotton and textile clusters. ACADEMIA: An International Multidisciplinary Research Journal – 2021/2.

kerakli unsurlariga esa yer kiradi. Yer qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning asosiy omili, mehnat yo'naitirilgan obyekt sifatidagi mehnat predmeti, shuningdek, turli xil mahsulotlarning joylashuv makoni, insonlar uchun turar joy hamda hayvonot va o'simlilar dunyosining yashashiga mo'ljallangan mehnat qurolidir. Har bir xalq va millat yerni asosiy boyligi sifatida e'tirof etadi, bir nechta shart va omillarni birlashtirgan holda qishloq xo'jaligidagi afzalliklarni yer orqali tavsiflaydi.

O'zbekistonda ham agrar sektor bir – biriga bog'liq ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga bo'linadi. Ilmiy – amaliy jihatdan ularni uch pog'onaga bo'lish mumkin (1- rasm). Makrodarajada birinchi hamda ikkinchi pog'onaga iqtisodiyotning agrar setori hamda agrosanoat majmuini kiritish mumkin. Iqtisodiyotning agrar sektoriga – qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, baliqchilik xo'jaligi, oziq – ovqat va xom ashyoni qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini hamda suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mashinasozligi va qator xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaviy sohalar kiradi. Ushbu sohalar makrodarajada vazirliklar va idoralar orqali davlat boshqaruvini amalga oshiradi.⁴ Agrosanoat majmui shartli ravishda 3 qismdan iborat sohalarni o'z ichiga oлади. O'zbekistonda oziq – ovqat va nooziq – ovqat tarmoqlari agrar sektor sifatida e'tirof etiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR


Umuman olganda yuqorida tahlil etilgan ilmiy tadqiqotlar har bir mamlakatning agrar iqtisodiyoti rivojlanishining o'ziga

⁴ Z.S.Shoxujaeva, A.B.Kurbonov. Sustainable Development Of The Agrarian Sector Depends On The Efficient Use Of Water Resources. International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT) ISSN: 2249 – 8958, Volume-8 Issue-6, August 2019.




xos xususiyatlari hamda ushbu davlatlarda qabul qilingan tushunchalar va ularning mazmun – mohiyatini ifoda etadi. Ta'qidlash joizki, agrar sektor va uning tarmoqlari orasidagi o'zaro bog'liqliklar uzoq shakllanib kelgan.⁵ Ayniqsa, sobiq ittifoq parchalanishi tufayli agrar soha tarkibi har bir suveren davlatning ichki va tashqi agrar siyosati negizida qayta shakllanmoqda va bu ularning o'ziga xos xususiyati, yer – suv va boshqa resurslarga bo'lgan mulkchilik shakllari orqali ro'y berilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, agrar sektorning tarkibiy tuzilishini xorijiy tajribalarni inobatga olib yanada takomillashtirish, innovatsion boshqarish usul va mezonlariga o'tishni, agroresurslardan, shuningdek, infratuzilmalar quvvatidan samarali foydalanishni talab etmoqda. Shularni hisobga olgan holda, amaliyotga yangi tarkibiy tuzilma yoki usullarni kiritish ishlab chiqarish qo'llanishi kengaytirish va korxonalar ishchilari mehnat unumdorligini, shunga mos ravishda ular daromadlarning oshishiga asos yaratish lozim.

⁵Z.S Shoxo'jayeva. Efficient use of water resources in the agricultural sector. Monograph. T.: - 2012



1-rasm. Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulot xizmatlarining hajmi⁶



⁶Davlat statistika qo'mitasi malumotlari 2022



Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini (paxtadan tashqari) ishlab chiqarish yil sayin ortib bormoqda. Bu ayniqsa meva va sabzavot mahsulotlariga tegishli, ishlab chiqarish bilan birga uni qayta ishlash va eksport qilish ham o'sib bormoqda. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ham sezilarli o'sish kuzatilmoqda.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Yuqoridagi islohotlarni amalga oshirish qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy ahvolini mustahkamlash,

yerlardan samarali foydalanishni rag'batlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini diversifikatsiya qilish, shu jumladan mevasabzavot va yem-xashak ekinlarini ko'paytirish imkonini beradi. Bu o'z navbatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining umumiy hajmini hamda agrar sektorning eksport salohiyatini oshirishga imkon beradi.

Agrar sektorning moddiy va texnik resurslarida foydalanish avvalo soha rivojiga hissa qo'shsa, keying o'rinda ushbu jihat orqali mamlakat agrosiyosatining iqtisodiy samaradorligi yanada oshadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021 yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5009-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so'zi, 29 dekabr 2020 y.
3. Z.S Shoxo'jayeva. Efficient use of water resources in the agricultural sector. Monograph. T.: - 2012
4. Z.S.Shoxujaeva, A.B.Kurbonov. Sustainable Development Of The Agrarian Sector Depends On The Efficient Use Of Water Resources. International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT) ISSN: 2249 – 8958, Volume-8 Issue-6, August 2019.
5. Z.S Shoxo'jayeva, M Norqobilov Problems of rational use of water resources in agriculture of the Republic of Uzbekistan. - НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 2020.
6. З.С Шохужаева Зарубежный опыт в сельском хозяйстве по использованию водных ресурсов. - Economics, 2020.
7. Sagdullaevna TF, Shoxo'jaeva Zebo Safoevna. Food provision of the population of the Republic of Uzbekistan in pandemy conditions: problems and solutions. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal – 2021/2.
8. Utkirovna MN, Shoxo'jaeva Zebo Safoevna Organizational and economic basis for the development of cotton and textile clusters. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal – 2021/2.